

Siqilgan tabiiy gaz sotish va sotib olish shartnomasi

Shartnoma № 15

Shaxrisabz tumani
(shartnoma tuzish joyi)2022 yil 05 yanvar
(shartnoma tuzish sanasi)

KESH STANDART SERVES M4XK (bundan buyon - "Bajaruvchi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **TURDIYEV NAVRUZBEK NEGMAT O'G'LI**, bir tomondan, va OOO "QASHQADARYO SUV TA'MINOTI" (bundan buyon - "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi direktor **XURSHID USMONOV ABDUKARIMOVICH**, ikkinchi tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraflar" deb ataluvchilar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Boshqa shartlar

Ushbu shartnomaga binoan, Mijoz to'laydi va qabul qiladi va Ijrochi quyidagi shartlar asosida tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beradi:

Shartnomaning umumiy miqdori Yetti million sakkiz yuz ming so'm 0 tiyin (summa so'zlar bilan).

№	Tovar nomi (xizmat)	Tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikatsiya kodi va nomi	Tovar/xizmat shtrix kodi	O'lchov birligi	Miqdori	Narx	Yetkazish bahosi	QQS		Yetkazish bahosi QQS bilan
								stavka	summa	
1	Siqilgan tabiiy gaz	02711001002000000 - Metan gaz		kub. metr	3 000,00	2 260,87	6 782 608,69	15,0000	1 017 391,31	7 800 000,00

1.2. Siqilgan tabiiy gazni topshirish-qabul qilish joyi Shaxrisabz tuman M39 yo'l yoqasi Yangiqishloq qishlog'i hududida joylashgan ASGTSK (avtomobillarga siqilgan gaz to'ldirish kompressor stansiyasi) hisoblanadi. 1.3. Siqilgan tabiiy gaz miqdori "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" ning vakillari ishtirokida ASGTSK xududida joylashgan gaz tarqatish ustuni orkali o'lchanadi. 2. Muhim shartlar. 2.1. Sotilayotgan siqilgan tabiiy gaz sifat sertifikatiga ega bo'lishi va sifati bo'yicha GOST 27577-2000 davlat standartiga javob berishi shart. 2.2. "Buyurtmachi" da siqilgan tabiiy gaz sifati uchun e'tirozi bo'lsa "Bajaruvchi" siqilgan gazni namunasini maxsus laboratoriyadan o'tkazish natijasini "Buyurtmachi" ga taqdim etadi. 2.3. Maxsus laboratoriya xulosasiga ko'ra siqilgan tabiiy gazni sifati davlat standarti talablariga javob bermasa ikki tarafdin dalolatnoma tuzilgan holda javobgar tomonga nisbatan yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha da'vo kiritiladi. 3. To'lov tartibi, majburiyatlarni bajarish shartlari va muddati. 3.1. Siqilgan tabiiy gaz narxi m3 xisobida chakana savdodagi narx bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Siqilgan tabiiy gaz sotib olish narxini o'zgarishi, soliq miqdorlarining o'zgarishi va boshqa sabablar bilan shartnomaning umumiy summasi o'zgarishi mumkin. 3.2. Siqilgan tabiiy gazning qabul qilinishi "Buyurtmachi" ning siqilgan tabiiy gaz narxiga roziligi hisoblanadi. "Buyurtmachi" ga siqilgan tabiiy gaz narxi ma'qul kelmasa qabul qilishni rad etishi yoki ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzish orqali narxni kelishishi mumkin. 3.3. "Buyurtmachi" siqilgan gaz qabul qilinadigan oy uchun shartnomaning 1 bandida ko'rsatilgan siqilgan tabiiy gaz summasi xisobidan 5 dan bir qismini kamida 15 % oldindan to'lovni pul ko'chirish yo'li orqali amalga oshiradi. 3.4. Siqilgan tabiiy gaz oylik qaydnomaga asosan hisob-kitob qilinadi va elektron hisob faktura bilan rasmiylashtiriladi. Ortiqcha to'lovlar keyingi oy uchun hisobga olinadi. Ortiqcha to'lovlar "Buyurtmachi" ning talabi bo'yicha qaytarib beriladi. 3.5. Siqilgan tabiiy gaz uchun yuzaga kelgan qarzdorlik "Buyurtmachi" tomonidan 1 oy mobaynida to'lab beriladi. 4. Taraflarning xuquq va majburiyatlari. 4.1. "Buyurtmachi" siqilgan tabiiy gazni qabul qilayotgan avtomashinasini texnik holatiga, gaz ballon uskunalaridan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya qilinishiga, uskunalarini o'z vaqtida sinovdan o'tkazilishiga hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi uchun javobgar hisoblanadi. 4.2. "Buyurtmachi" quyidagilar uchun majbur xisoblanadi. Gaz ballon urnatilgan avtomashinalardan foydalanish qoidalariga amal qilinishini ta'minlash; Avtomashina va unga urnatilgan gaz ballonni texnik soz holatda saqlab turish; Gaz ballonni uz vaqtida sinovdan o'tkazish. Xaydovchi gaz ballon uskunalarini o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish huquqiga ega bo'lishini ta'minlash; 4.3. "Buyurtmachi" avtomashinada o'rnatilgan gaz ballon uskunasi hajmiga nisbatan 85% holatdan ortiqcha siqilgan tabiiy gaz to'ldirilmaligi kerak. 4.4. "Buyurtmachi" shartnomaning 1 bandida ko'rsatilgan siqilgan tabiiy gaz miqdorini to'liq yoki qisman olmaganligi uchun javobgar hisoblanmaydi. Shartnomaning 1 bandidan ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha siqilgan tabiiy gaz olish qo'shimcha kelishuv asosida amalga oshiriladi. 4.5. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ning avtomashinasiga siqilgan gazni to'ldirishdan oldin quyidagilarni amalga oshirish huquqiga ega; Avtomashina, gaz ballon va uskunalarini holatini nazoratdan o'tkazish. Gaz ballon uskunasi sinovdan o'tganligini tekshirish. Xaydovchini gaz ballon uskunasi o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish huquqini beruvchi guvohnomasiga ega bo'lishini tekshirish. 4.6. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ning texnika, yong'in va gaz ballon uskunalarini o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish qoidalariga javob bermaydigan avtomashinalar gaz ballonlariga siqilgan tabiiy gaz to'ldirilmaligi huquqiga ega. 5. Taraflarning javobgarligi. 5.1. Taraflar bir-birlariga yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgar hisoblanadi. Da'vogar taraf ushbu shartnoma shartlarini bajarmaslik bo'yicha yetkazilgan zarar uchun javobgar tomonga da'vo kiritish huquqiga ega. 5.2. "Buyurtmachi" olingan siqilgan tabiiy gaz uchun to'lanmay qolgan summani ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan vaqtdan boshlab bir oy muddatda tulab bermasa ushbu muddatdan o'tgan xar bir kun uchun 0,2% miqdorida lekin to'lanmay qolgan summaning 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. 5.3. "Bajaruvchi" olingan to'lovlar uchun siqilgan tabiiy gazni o'z vaqtida yetkazib bermasa yetkazib berilmagan oying keyingi sanasidan boshlab o'tgan xar bir kun uchun 0,2% miqdorida lekin olingan to'lov summasining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. 6. Nizolarni bartaraf qilish tartibi. 6.1. Taraflar o'rtasidagi nizolar uzaro hal etilmasa amaldagi qonunchilik asosida javobgar shaxs joylashgan hududdagi iqtisodiy sud orqali hal qilinadi. 7. Tovar (xizmatlar) larni qabul qilish va topshirish tartibi. 7.1. Topshirilgan-qabul qilingan siqilgan tabiiy gaz miqdori oylik qaydnomaga qayd qilinadi va "Buyurtmachi" ning vakili tomonidan imzo qo'yiladi. 7.2. Oylik qaydnomaga siqilgan tabiiy gazni topshirish-qabul qilish sanasi, avtomashina davlat raqam belgisi, vakilning ismi sharifi to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritiladi. 7.3. Oylik qaydnomaga asosan oy davomida topshirilgan-qabul qilingan siqilgan tabiiy gaz miqdori elektron schet-faktura bilan rasmiylashtiriladi. 8. Shartnomaning o'zgartirish va tugatish tartibi. 8.1. Shartnomaga o'zgartirish kiritish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. 8.2. Shartnomaning amal qilish bir tarafning yozma bildirishnomasi asosida muddatdan oldin tugatilishi mumkin. 9. FORS-MAJOR 9.1. Xech bir taraf shartnoma shartlarini fors-major holatlari bo'yicha bajarmaganligi sababli javobgar hisoblanmaydi. (urush, tabiiy ofatlar, epidemiya, hukumatning ta'qiqlovchi qarorlari) 10. Boshqa shartlar 10.1. Shartnoma taraflar uchun 2 nusxada tuzilib, teng yuridik kuchga ega hisoblanadi. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31 maygacha qilib belgilanadi va majburiyatlar to'liq bajarilguncha amal qiladi.

2. TOMONLARNI YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

IJROCHI

BUYURTMACHI

Nomi: KESH STANDART SERVES МЧЖ
Manzili: КУНЧИКАР К.Ф.Й ЯНГИ ҚИШЛОҚ КИШЛОГИ
Tel.: 755220056
Faks:
STIR: 302650353
OKED: 47300
H/R: 20208000900235769001
Bank: ШАХРИСАБЗ Т., "ИПАК ЙУЛИ" ОАИТ БАНКИНИНГ
ШАХРИСАБЗ ФИЛИАЛИ
MFO: 01048

Nomi: ООО "QASHQADARYO SUV TA'MINOTI"
Manzili: XONOBOD KO`CHASI 1-UY
Tel.:
Faks:
STIR: 204737079
OKED: 36000
H/R: 20208000504291550001
Bank: КАРШИ Ш., "ИПОТЕКА-БАНК" АТИБ КАШКАДАРЁ ВИЛОЯТ
ФИЛИАЛИ
MFO: 00190

